

“LISON UT-TAYR” DOSTONIDAGI HIKOYATLAR TASNIFI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i01.001>

Dilovarxon Valijon-qizi Jo‘rayeva
dilovarxonjorayeva05@gmail.com
Qo‘qon DU

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy qalamiga mansub “Lison ut-tayr” asaridagi hikoyatlar mavzu ko‘lami jihatidan tahlil qilinadi. Doston tarkibiga kiruvchi hikoyatlar orqali tasavvufiy g‘oyalar, insonning ma‘naviy kamolot yo‘li, o‘zlikni anglash, sabr, ixlos, ishq va haqiqatga intilish masalalari yoritiladi. Hikoyatlarning mazmuniy xilma-xilligi ko‘rib chiqiladi. Maqolada hikoyatlarning badiiy va falsafiy ahamiyati ochib berilib, ularning umumiy doston g‘oyasini yuksaltirishdagi o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Lison ut-tayr” asari, hikoyatlar, mavzu ko‘lami, tasavvuf, ramziy obrazlar, ma‘naviy kamolot, o‘zlikni anglash, badiiy-falsafiy tahlil

CLASSIFICATION OF THE STORIES IN THE EPIC POEM “LISON UT-TAYR”

Dilovarxon Valijon-qizi Jo‘rayeva
dilovarxonjorayeva05@gmail.com
Kokand State University

Abstract: This article analyzes the stories included in Alisher Navoi’s work “*Lison ut-Tayr*” in terms of their thematic scope. Through the stories that form part of the epic, Sufi ideas, the path of human spiritual perfection, self-awareness, patience, sincerity, love, and the pursuit of truth are explored. The thematic diversity of the stories is examined. The article reveals the artistic and philosophical significance of the stories and substantiates their role in enhancing the overall idea of the epic.

Keywords: Alisher Navoi, “*Lison ut-Tayr*”, stories, thematic scope, Sufism, symbolic images, spiritual perfection, self-awareness, artistic and philosophical analysis

Hazrat Navoiy ijodining cho‘qqisi hisoblangan “Lison ut-tayr” asari buyuk mutafakkir Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asariga javob tarzida yaratilgan bo‘lib, unda keltirilgan hikoyatlar asar mazmunini yoritishda eng asosiy o‘rinni egallaydi. Har bir hikoyatda ko‘tarilgan mavzular nafaqat o‘sha davr, balki, hozirgi

kun holatiga ham mos keladi. Asarda qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari esa shoir mahoratining qanchalik yuksak ekanligidan dalolatdir.

“Lison ut-tayr” asaridagi har bir hikoyat o'ziga xos mavzu va ma'noga ega bo'lib, hikoyatlarda quyidagi mavzular keng ko'lamda aks ettiriladi:

1. Tarixiy shaxslarga bag'ishlangan hikoyatlar
2. Pand-nasihat mavzusidagi hikoyatlar
3. Tasavvufiy mavzudagi hikoyatlar
4. Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi hikoyatlar

Yuqorida keltirilgan mavzular bo'yicha asarda keltirilgan 65 ta hikoyatning barchasini jadval asosida tahlil qilamiz.

TARIXIY SHAXSLARGA BAG'ISHLANGAN HIKOYATLAR JAMI 22 TA

Tahlillarimiz davomida tarixiy shaxslarga bag'ishlangan hikoyatlarning bir nechtasida tasavvufiy mavzuga oid qarashlar mavjud ekanligiga guvoh bo'ldik hamda ushbu tahlillarni ham quyidagi jadvalda jamladik.

T/r	Bob	Hikoyat	Mazmun	Tasavvufiy mavzuga bog'liqligi
1	6	Abu bakr siddiqning qat'iyati sadoqati va shariatni himoya qilishdagi sobitligi to'g'risidagi hikoyat	Abu Bakr Siddiq islom qonunlariga qat'iy sodiqligi bilan dindan qaytganlarga qarshi kurashdi.	
2	8	Mo'minlar amiri Umari Foriq	Hazrati Umar keltirilgan bu mol-dunyo va xazinalarga ko'z qirini ham tashlamay, davlat xazinasiga topshirishni buyurdi: bular g'azotga chiquvchilar uchun yetganicha bo'lib beriladi.	
3	10	Usmon ibn Affonning hayo fazilati va Rosululloh (s.a.v)ning uni ulug'lashlari	Payg'ambar (s.a.v.) Usmonning hayosini hurmat qilib, odob ko'rsatdi; bu Usmonning ulug' fazilatidan dalolat beradi.	
4	12	Hazrat Alining (Haydari Karor) namozga berilganliklari, payg'ambar maslahatining hikmati va Allohning inoyati bilan og'ir darddan qutulishlari	Ali jangda yaralanganida, payg'ambar (s.a.v.) namoz chog'ida o'qni sug'urishni maslahat berdi; u ibodatga shunchalik berilganki, dardni sezmaydi. Bu voqea payg'ambar rahmati va Aliyning sadoqatini ko'rsatadi.	
5	82	Boyazid Bistomiy haqidagi hikoya	Bir kecha Boyazid oydin osmonda sayr qilib, hech bir maxluqni ko'rmaydi va “Nega bu manzil dard va shavq ahlidan xoli?” deb hayron qoladi. Ko'ngliga ilohiy sir keladi: bu joy - izzat va ulug'lik dargohi bo'lib, oddiy kishilar unga yetolmaydi; hatto talab ahli	ilohiy jamol va izzat manzili faqat tanlangan, eng pok ruhlargagina ochiladi, degan fikrni ifodalaydi

			jonini fido qilsa ham, bu darajaga yetmoq oson emas.	
6	86	Shayx Najmiddin Kubroning so'zi va itga tushgan ko'zi haqidagi hikoya	Shayxning nazari itni ham izzatli darajaga ko'tardi, u boshqa itlar orasida shoh bo'ldi, qabri ham hurmat topdi.	Yuksak inson nazari eng tuban mavjudotga ham ulug'lik baxsh etadi.
7	89	Shayx Abusaid Abulxayr haqida hikoya	Shayx Abu Sayid Abulxayr ishq yo'lida balo va kasallikdan azob chekib, hijron yillari o'tkazdi. Tunlari fig'on bilan, kunduzlari zorlik bilan o'tdi. U vayronada, quduq ichida qonli yosh to'kib, bir necha yil hijron alangasida yondi. Nihoyat, oxir-oqibat visol jomi unga nasib etdi	Chin ishq yo'lida inson o'lmay turib (ya'ni nafsidan kechmay turib), haqiqiy visol davlatiga erisholmaydi.
8	92	Odam Safiy alayhissalom haqida hikoya	Odam Ato yaratilganda izzat va sharafning eng oliy martabasiga yetdi, hatto farishtalar ham unga sajda qildilar. Ammo gunoh tufayli jannatdan quvildi, dunyoga tushib, yillar davomida hijron va azob chekdi. Nihoyat, chin tavba qilib, yana rahmatga musharraf bo'ldi.	Gunoh insonni sharafdan mahrum etsa-da, chin tavba uni yana ilohiy rahmat va maqomga yetkazadi.
9	95	Shayx Abu Turob Naxshabiy haqida hikoya	Abu Turob Naxshabiy ziynat va go'zallikka berilgan muridini sinash uchun og'ir riyozatlar belgilaydi. Murid bu sinovlarga chidaydi, ammo nafsini yenga olmaydi iztirob va sharmandalik uning nafsini sindiradi. Shundan so'ng u poklanib, murshid yo'lida mukammal darajaga yetadi.	Nafsga qarshi kurash - haqiqiy komillikka eltuvchi yo'ldir. Agar odam nafsini yengmasa, u hech qachon ruhiy xazina va haqiqatga erisha olmaydi.
10	110	Arastu va uning shogirdi haqidagi hikoyat	Arastu shogirdi ilmda ustun bo'lsa-da, go'zal qizga oshiq bo'lib, uning haqiqiy mohiyatini ko'rgach hijolat bo'ladi.	Tashqi go'zallikka aldanish - insonni ilm va haqiqatdan chalg'itadi. Haqiqiy ishq ruhiy poklik va ma'naviy go'zallikdadir.
11	113	Sulaymon payg'ambar va Azroil haqidagi hikoya	Oqil odam o'limdan qochish uchun Sulaymon payg'ambardan yordam so'radi, shamol bilan Hindistonga eltildi, ammo oxiri u yerda Azroil uni topib, jonini oldi.	
12	119	Azozil haqidagi hikoya	Azozil ming yillik ibodat qilgan bo'lsa-da, g'urur sababli Odamga sajda qilmay, Allohning la'natiga uchradi.	Manmanlik va kibr ibodatni ham puch qiladi. O'z amalini ko'z-ko'z qilish (minnat qilish) - yo'qotishlarning eng kattasidir.
13	122	Ibrohim Adham haqidagi hikoya	Balx shohi Ibrohim ibn Adham taxt va mulkni tark etib, faqirlik	Kimki taxtu mulkni, havoyu nafsni tark etsa va

			yo'lini tanlaydi. Yillar davomida riyozat va sinovlardan o'tib, nafsini yengadi va chin oshiq maqomiga yetadi.	chin sabr bilan riyozat qilsa, u haqiqiy komillikka yetadi.
14	125	Ahmadi jom haqidagi hikoya	Qiyomat kuni Jom shayxi Ahmadi Jom do'zax ahlining azobini ko'rib, Allohdan ularning gunohlarini kechishni iltijo qiladi. Agar ular ozod qilinmasa, u butun do'zaxni o'zi to'ldirishga tayyorligini bildiradi.	Haqiqiy murshid va chin oshiq boshqalar g'amini yeb, o'zini ham qurbon qilishga tayyor bo'ladi. Bunday ulug' himmat boshqalarga najot eshigini ochadi.
15	128	Xo'ja Muhammad Porso haqidagi hikoya	Xo'ja Muhammad Porso haj ziyoratida xalq duosini xizmatkori Abu Nasrga topshirdi; Abu Nasr duoni ixlos bilan qildi va Xo'janing "omin"i bilan tugadi, bu samimiyat va insof barcha ziyoratchilarni hayratga soldi.	
16	134	Boyazid Bistomiy haqidagi hikoya	Shayx Boyazid Bistomiy muridiga tushida Allohning qabuliga ishonishni va ixlos bilan Unga suyanishni haqiqiy bandalik deb o'rgatdi.	Kibrsiz, ixlos bilan Allohning marhamatiga suyanish - haqiqiy sodiqlik belgisi
17	137	Shayx Abu Bakr Nishopuriy haqidagi hikoyat	Shayx Abu Bakr Nishopuriy muridlarining ko'pligidan kibrlanmoqchi bo'lganida, eshakning hangrashi unga tanbeh bo'ldi. U shu orqali nafsni jilovlash va kibrdan saqlanish sabog'ini oldi	Ba'zan eng oddiy voqea ham nafsni jilovlashga sabab bo'lishi mumkin. Insofli kishi kichik ishoralardan ham saboq chiqaradi, mag'rur esa bundan bebahra qoladi.
18	140	Xo'ja Abdulloh Ansoriy haqidagi hikoya	Xoja Abdulloh Ansoriy fikricha, haqiqiy ko'ngil faqat Alloh va jonon yodi bilan to'lgan qalbdir. Unda boshqa narsaga joy bo'lsa, u ko'ngil emas, balki yo'qotishdir.	Ko'ngilning qiymati unda nima joylashganiga bog'liq: Alloh bilan to'lsa - nurli qalb, dunyo havaslari bilan to'lsa - zulmatdir
19	143	Abu Said haqidagi hikoya	Abu Said Alloh visoliga yetganidan, boshqalar kabi uni izlashga hojat sezmasdi. U o'zini topilgan narsani qidirish bema'nilik deb bilib, boshqalar murodiga yetishini Allohdan so'radi.	Haqiqiy orif Allohni izlashdan emas, Alloh bilan bo'lishdan huzur topadi. Ammo u boshqalar uchun duo qilib, ularni ham vaslga yetishini istaydi.
20	158	Mansur Halloj haqidagi hikoya	Mansur "Anal-haq" deya da'vo qiladi, tushida Rasululloh unga ko'rinib, haqiqiy tavhidda "men" yo'qligini, hamma narsa faqat Allohga taalluqli ekanini uqtiradi.	Haqiqiy tavhidda "men" degan so'zga o'rin yo'q. Barcha mavjudlik va amal faqat Allohga taalluqlidir.

21	171	Xoja Abdulloh Ansoriy haqidagi hikoya	Xoja Abdulloh Ansoriy aytadiki, agar kishi kuyni Allohni yod etish uchun aytsa, bu gʻaflatdagi Qurʻon tilovatidan afzalroqdir.	Ishning mohiyati niyatda - ogohlik bilan qilinadigan kichik amal ham beparvo katta amaldan ustundir.
22	182	Ibrohim va jabroil haqidagi hikoyat	Namrud oʻtiga tashlangan Ibrohimga Jabroil yordam taklif qiladi, ammo Ibrohim barcha ehtiyojini faqat Haqning oʻziga topshiradi.	Haqiqiy tavakkul - mushkul paytda ham hech vositaga suyanmay, ehtiyojini faqat Haqning oʻziga topshirishdir;

PAND-NASIHAAT RUHIDAGI HIKOYATLAR JAMI 10 TA

T/r	Boblar	Hikoyat	Xulosa
1	35	Yashil chakmon kiygan hiylagar va komil pir haqidagi hikoyat.	Haqiqat oldida hiyla va nafsning foydasi yoʻq.
2	38	Kungurali toj kiygan masxaraboz hindu haqidagi hikoyat.	Yolgʻon obroʻ oxir-oqibat sharmandalikka olib keladi.
3	44	Johil bogʻbon haqidagi hikoyat.	Johillik va samarasiz mehnatning oqibati halokatdir.
4	47	Tanbal va ishyoqmas kishi hikoyati.	Mehnatsiz hayotning oqibati halokatdir.
5	56	Tutqundagi ayiq haqidagi hikoyat.	Takabburlik va nodonlik oxir-oqibat rasvolikka olib keladi.
6	59	Boʻyra shohi haqidagi hikoyat.	Soxta daʼvo va behuda gʻurur kishi shaʼnini rasvo qiladi.
7	62	Hunarsiz pahlavon haqidagi hikoyat.	Kuch emas, sabr va toqat odamni maqsadga yetkazadi (burgutning uzri) qismida keltirilgan
8	70	Gʻavvos va savdogar ibrati	Haqiqiy foyda sabr va mashaqqat evaziga topiladi, soxta daʼvolar esa insonni mahrumlik va rasvolikka eltadi
9	104	Xasis kishi haqida hikoyat	Boylikka oʻchlik insonning halokatiga sabab boʻladi. Dunyo boyliklari insonni saqlab qolmaydi, balki uni baxtsiz qilishi mumkin
10	154	Koʻrlar va fil haqidagi hikoya	haqiqatni toʻliq tushunish uchun faqat oʻz qarashing emas, balki boshqalarning fikrini ham eshitib, umumiy tasavvur hosil qilish kerak.

TASAVVUFIY MAZMUNDAGI HIKOYATLAR JAMI 46 TA

T/r	Boblar	Hikoyatlar	Tasavvufiy mazmun
1	19	Chin shahrining sifati va Simurgʻparining u yerga tushgani voqeasi	Haqiqat yorugʻi bir parchasi bilan ham dunyoni goʻzallashtiradi, lekin uni toʻla anglash faqat chin maʼnaviy yuksalish bilan boʻladi.
2	41	Oʻzini shohga oshiq qilib koʻrsatgan aslida sohta munosabatli gado haqidagi hikoyat.	Haqiqiy ishq soxtalikni koʻtarmaydi.
3	53	Biri gumroh ikkinchisi esa bilimdon boʻlgan ikki oʻrtoq haqidagi hikoyat	Haqiqatda komil odam yuksaladi, nuqsonli kishi esa rasvo boʻladi.
4	65	Vayronadan xazina topgan devona hikoyati	Dunyo boyligi ortidan quvish oxir-oqibat halokatga olib keladi.
5	71	Mol dunyo deb ohiratni unutgan savdogar haqidagi hikoyat.	Mol-dunyoga berilib, haqiqiy burchini unutgan inson oxir-oqibat ziyon koʻradi.
6	76	Xusnini namoyish qilishda koʻzguni vosita qilgan shoh hikoyasi	inson qalbi pok koʻzgu kabi jilolansa, unda ilohiy jamol aks etadi va inson unga oshno boʻladi
7	77	Iskandarning elchilikka borganligi hikoyasi	Haqiqatni bilish uchun yuzaki koʻrinishga emas, ichki maʼnoga diqqat qilish lozim.
8	79	Shayh Sanʼon hikoyati	Chin ishq odamni ogʻir sinovlardan oʻtkazadi, lekin sabr va sadoqat bilan bardosh bergan kishi haqiqiy baxt va haqiqatga yetadi

9	82	Boyazid Bistomiy haqidagi hikoya	ilohiy jamol va izzat manzili faqat tanlangan, eng pok ruhlagagina ochiladi, degan fikrni ifodalaydi.
10	89	Shayx Abusaid Abulxayr haqida hikoya	Chin ishq yo'lida inson o'lmay turib (ya'ni nafsidan kechmay turib), haqiqiy visol davlatiga erisholmaydi.
11	92	Odam Safiy alayhissalom haqida hikoya	Gunoh insonni sharaftan mahrum etsa-da, chin tavba uni yana ilohiy rahmat va maqomga yetkazadi.
12	95	Shayx Abu Turob Naxshabiy haqida hikoya	Nafsga qarshi kurash - haqiqiy komillikka eltuvchi yo'ldir. Agar odam nafsini ezmasa, u hech qachon ruhiy xazina va haqiqatga erisha olmaydi.
13	98	Zolim shohning darveshlik yo'lini tanlagani haqida hikoya.	Haqiqiy shohlik - nafsni yengib, Haq yo'lida sobit bo'lishdir. Dunyo shon-shuhrati o'tkinchi, asl mulk esa oxirtda ochiladi.
14	101	Xirqoniy - komil murshid, hikmatli so'zlari bilan muridni hushyor qilgani haqidagi hikoya	inson o'z gunohlarini shaytonga yuklab qutulolmaydi. Asl balo nafsning o'zidir. Agar inson o'zini tozalash bilan shug'ullanmasa, shayton ham undan uzrliroq bo'lib qoladi.
15	110	Arastu va uning shogirdi haqidagi hikoyat	tashqi go'zallikka aldanish - insonni ilm va haqiqatdan chalg'itadi. Haqiqiy ishq ruhiy poklik va ma'naviy go'zallikdadir.
16	113	Sulaymon payg'ambar va Azroil haqidagi hikoya	O'limdan qochish mumkin emas; ajal kelganda odam qochsa ham baribir o'sha joyga yetib boradi.
17	116	Misrda yashovchi oliyhimmat kishi haqidagi hikoya	Dunyo ne'matlari ruhiy vaslni bormay to'ldira olmaydi; tashqi baxt ichki qoniqishga kafolat emas.
18	122	Ibrohim Adham haqidagi hikoya	Kimki taxtu mulkni, havoyu nafsni tark etsa va chin sabr bilan riyozat qilsa, u haqiqiy komillikka yetadi.
19	125	Ahmadi jom haqidagi hikoya	Haqiqiy murshid va chin oshiq boshqalar g'amini yeb, o'zini ham qurbon qilishga tayyor bo'ladi. Bunday ulug' himmat boshqalarga najot eshigini ochadi.
20	128	Xo'ja Muhammad Porso haqidagi hikoya	Insof - insonning eng ulug' fazilatidir. Chin ixlos va insof bilan qilingan amal odamlar qalbini zabt etadi va Haq nazarida ham qadr topadi.
21	131	Devona va eshak haqidagi hikoya	Tavakkul - sababni qo'ymaslik emas, balki sababni ishlatib, natijani Allohga topshirishdir. Inson shikoyat qilsa ham, samimiy muhabbat va ixlos bilan qilingan duo oxir-oqibat qabul topadi
22	134	Boyazid Bistomiy haqidagi hikoya	Haqiqiy bandalik o'zini ko'rsatish emas, balki Allohning qabuliga umid qilishdir. Kibrsiz, ixlos bilan Allohning marhamatiga suyanish - haqiqiy sodiqlik belgisi.
23	137	Shayx Abu Bakr Nishopuriy haqidagi hikoyat	Kibru g'urur insonni haq yo'ldan ozdiradi. Ba'zan eng oddiy voqea ham nafsni jilovlashga sabab bo'lishi mumkin. Insofli kishi kichik ishoralardan ham saboq chiqaradi, mag'rur esa bundan bebahra qoladi
24	140	Xo'ja Abdulloh Ansoriy haqidagi hikoya	Ko'ngilning qiymati unda nima joylashganiga bog'liq: Alloh bilan to'lsa - nurli qalb, dunyo havaslari bilan to'lsa - zulmatdir
25	143	Abu Said haqidagi hikoya	Haqiqiy orif Allohni izlashdan emas, Alloh bilan bo'lishdan huzur topadi. Ammo u boshqalar uchun duo qilib, ularni ham vaslga yetishini istaydi.
26	146	Oshiq va shohning mehribonligi haqidagi hikoya	haqiqiy ruhiy vasl va mehr insonni dunyo madaniyatidan ustun tutadi; rahm-shafqat ba'zan moddiy lutfdan ham yuksakroq najot beradi.

27	150	Sodiq oshiqlar haqidagi hikoya	Haqiqiy oshiq uchun azob va kulfat ham rohatdir. Sadoqat ishqda eng oliy martaba bo'lib, bu hol oshiqni maqsadga yaqinlashtiradi.
28	152	Asma'iy haqidagi hikoya	Og'ir dardga chalingan kishiga qattiq so'z emas, taskin va dalda lozim. Nodonona nasihat esa ba'zan odamni halokatga yetaklashi mumkin
29	158	Mansur Halloj haqidagi hikoya	Haqiqiy tavhidda "men" degan so'zga o'rin yo'q. Barcha mavjudlik va amal faqat Allohga taalluqlidir.
30	160	Oy yuzli mashuqa va g'amli oshiq haqidagi hikoya	Qisqa muddatli zavq va vasl uzoq muddatli azob va pushaymonlikka sabab bo'lishi mumkin.
31	162	Shayx Abul Abbas Qassob haqidagi hikoya	Haqiqiy ulug'lik - insonning mol-mulkdan ham, hatto o'z nafsidan ham voz kechib, sabr va kamtarlikda sobit qolishidir
32	164	Parvonalar to'dasi haqiqiy sham sharhida	Haqiqiy haqiqatga yetish uchun faqat so'z bilan emas, balki chin qalb, fidoiylilik va ichki tajriba bilan yaqinlashish kerak. Ba'zi haqiqatlar faqat "yonib", ya'ni o'zini bag'ishlab, amalda sinab ko'rganlargagina ayon bo'ladi.
33	165	Shayx Sufyon Suriyning fanodan so'ngra baqoga erishunog haqida aytgan so'zi	Haqiqiy ma'rifatga yetishish - og'ir, xavfli va sabr talab qiladigan yo'l. Uni faqat qo'rquvni yengib, sinovlardan o'tgan kishi topa oladi.
34	168	Majnun va yo'lovchi haqidagi hikoya	Haqiqiy ishqda yor doimo oshiqning qalbidadir.
35	171	Xoja Abdulloh Ansoriy haqidagi hikoya	Ishning mohiyati niyatda - ogohlik bilan qilinadigan kichik amal ham beparvo katta amaldan ustundir.
36	178	Qays haqidagi hikoya	Chin ishq oshiqni o'zidan kechirtirib, ma'shuq bilan bir butun qiladi. Ishqning eng oliy darajasi - o'z "men"idan kechib, ma'shuq bilan birlashishdir.
37	174	O'zining shayx ruhi madadidan unga o'xshatma qilganligiga Qaqnus tamsili	Qaqnus hikoyasi insonning Haqqa yetish yo'lini ramziy ifodalaydi: solik avval o'zini "kuydirib", ya'ni nafsdan poklanib fano holiga yetadi, so'ng ruhiy uyg'onish - baqoga erishadi. Murshidning nuri boshqalarni ham shu yo'lga yetaklaydi.
38	176	Tolib Ka'bani ko'rdi, lekin Haqni ko'ra olmadi; Boyazid unga Haq yo'lda hamroh bo'lganini anglamaganini uqtiradi.	Haqni uzoq manzillardan emas, balki har qadamda, har nafasda sezgan kishi haqiqiy tolibdir; ziyoratning haqi - Ka'baga borishda emas, safardagi ogohlikdadir.
39	180	Shoh solikka dunyoviy ne'matlar taklif qiladi, lekin solik Haqni tanigani uchun jahon ne'matlariga ehtiyoj sezmasligini aytadi.	Haqqi haqiqiy boylik - dunyodan istig'no qilib, faqat Haqning o'zini talab qilishdir; kim Haqni topsa, boshqa barcha narsalar o'z-o'zidan ma'nosizlashadi.
40	182	Ibrohim haqidagi hikoyat	Haqiqiy tavakkul - mushkul paytda ham hech vositaga suyanmay, ehtiyojni faqat Haqning o'ziga topshirishdir; kim Haqqa suyanadi, unga o't ham gulshan bo'ladi.
41	184	Hikoya oshiqning hijroni va ruhiy azobi orqali Haqqa intilishi, fano holati va haqiqiy visolga yetish jarayonini tasvirlaydi.	Haqiqiy visol - nafsning yo'qolishi va ruhning Haqda uyg'onishi; fano orqali Haqni idrok etish haqiqiy maqsaddir.
42	186	Hikoya shoh va oshiq Ayozi	Haqiqiy ishq va ruhiy birlikda menlik yo'qoladi, faqat sevgi va vahdat qoladi; oshiq va ma'shuqa birligi bu Haqni anglashning timsolidir.
43	188	solikning Haqqa intilishi va menlikdan voz kechishi	Haqiqiy visol uchun solik menlikni yo'q qiladi, faqat Haqning o'zi qoladi; bu hol fano va vahdatning timsolidir

44	190	Tolib haqidagi hikoyat	Solik devor yiqilishidan ruhiy ishora ko'radi: Haqqa taslim bo'lgan kishi ham ana shunday o'z irodasini qo'yib, Haq qaysi yo'lga boshlasa, o'sha tomonga fano bo'ladi.
----	-----	------------------------	--

IJTIMOIIY SIYOSIIY MAVZUDAGI HIKOYATLAR JAMI 4TA

T/r	Boblar	Hikoyatlar	Ijtimoiy-siyosiy masala
1	65	Vayronadan xazina topgan devona hikoyati	Insonning dunyo boyliklariga ruju qo'yishi.
2	68	G'avvos va savdogar ibрати	Og'ir mehnat qadsiz qolib, foyda vositachilarga ketadigan tuzum ijtimoiy-siyosiy tengsizlikni kuchaytiradi."
3	104	Xasis kishi haqida hikoyat	Dunyo mollariga haddan tashqari berilish jamiyatda adolatsiz boylik to'planishiga va ijtimoiy-siyosiy tengsizlikning kuchayishiga olib keladi."
4	156	Shahmat o'ynaguvchi ikki ustod haqida hikoyat	Jamiyatda tabaqalanish masalasi

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, "Lison ut-tayr" - Navoiy ijodining yetuk tasavvufiy asari bo'lib, unda qushlar sayohati orqali insonning ruhiy poklanish va komillikka yetish yo'li ramziy tarzda talqin qilinadi. Asarning badiiy tuzilishi, san'atlarning mohirona qo'llanishi va ramzlar tizimi Navoiy poetikasining yuksakligini namoyon etadi. Asar tarkibidagi turli hikoyatlar esa bosh g'oyani yanada ochib beruvchi ma'naviy va axloqiy misollar sifatida xizmat qiladi. Ular qushlarning ichki holatini, izlanishlarini va kamchiliklarini yoritib, o'quvchini chuqurroq ma'no qatlamiga olib kiradi. Shu bois "Lison ut-tayr" badiiy jihatdan mukammal, falsafiy jihatdan teran asar sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. Toshkent. Fan.1998
2. Navoiy A. Lison ut-tayr. Toshkent. G'afur G'ulom.2005
3. Nurbayeva.M. Alisher Navoiy ijodida ta'lim va tarbiyaning mushtarakligi. Toshkent. Fan.2007
4. Sirojiddinov Sh. Yusupova D.Davlatov O.Navoiyshunoslik. Toshkent. Tamaddun.2018
5. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Toshkent. Akademnashr.2011
6. Saidakbarova M. Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari. Toshkent. Klassik. 2023
7. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Toshkent. Malik Print Co.2021
5. Shamsiyev P.Ibrohimov S.Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent. G'afur G'ulom.1972